



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-aprel

VII-9-54-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

**Tuman IIB boshlig‘i A.Ochilovning 2025-yilning I-chorak yakunlari bo‘yicha
Kattaqo‘rg‘on tumanida jinoyat va huquqbazarliklarni oldini olish, ularni
aniqlash, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf qilish yuzasidan
amalga oshirilgan ishlар bo‘yicha hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-sonli qarorini ijrosi hamda tumanda jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, proflaktika inspektorlarini faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali tumanda qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24- va 25²-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, to‘qqizinchи sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman IIB boshlig‘i A.Ochilovning 2025-yilning I-chorak yakunlari bo‘yicha Kattaqo‘rg‘on tumanida jinoyat va huquqbazarliklarni oldini olish, ularni aniqlash, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf qilish yuzasidan amalga oshirilgan ishlар bo‘yicha hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman ichki ishlар bo‘limi (A.Ochilov), Yoshlar ishlари agentligi tuman bo‘limi (L.Abduqaxxorov) va mutasaddi tashkilot rahbarlari bilan birgalikda:

tumanda aholi osoyishtaligi va kriminogen vaziyat barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha “Xavfsiz hudud”, “Xavfsiz oila”, “Nazorat”, “Tur mush”, “Diqqat piyoda” “Davomat”, “Tig”, “O‘quvchi” “Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni” hamda “Tungi reyd” kabi tezkor-profilaktik tadbirlari doimiy tashkil qilish orqali huquqbazarliklar oldini olish choralarini ko‘rish;

tumandagi mahallalarda “namunaviy xavfsiz ko‘cha” hamda “namunaviy xavfsiz yo‘lak” loyihibarini tashkil etish;

yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish maqsadida “Og‘ir toifa”dagi yoshlar bilan profilaktik tadbirlar olib borish, kasb-hunarga o‘qitish, yoshlarni bandligini ta‘minlash, ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish va boshqa turdagи yordamlar ko‘rsatish;

jinoyatlarni sodir etilishini oldini olish maqsadida bozorlarda, savdo komplekslarida, savdo do‘kon va rastalarida texnik vositalar o‘rnatish;

aholini firibgarlik jinoyati qurbaniga aylanishini oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlar o‘tkazish choralarini ko‘rish;

“Qizil” toifadagi (“Mirzo Ulug‘bek”, “Javlon”, “Charog‘on” va “Uyshun”) mahallalarda olib borilayotgan profilaktik tadbirlarni yanada kuchaytirish hamda profilaktika inspektorlariga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatib borish maqsadida rahbar xodimlarni biriktirish choralarini ko‘rsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (A.Ochilov), tuman hokimining o‘rinbosari–Oila va xotin-qizlar bo‘limi(S.Djumayeva)ga oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlar va ayollar jinoyatchiliginu oldini olish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish hamda tizimli ishlarni tashkil qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Ochilov), tuman Soliq inspeksiyasi (N.Razzoqov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Raximov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (L.Abduqaxxorov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (G.To‘chiyev) hamda hududlardagi “mahalla yettiligi” bilan birgalikda xizmat olib borib huquqbazarlik sodir etishga moyil yoxud huquqbazarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar bilan manzilli ishlar tashkil etsin.

5. Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (A.Ochilov)ga:

hududiy profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi ishlarni jadallashtirish;

probatsiya inspektorlari zimmasiga profilaktik hisob va ma’muriy nazoratdagilarning shaxsini o‘rganish va ularni ijtimoiy moslashtirish ishlarida profilaktika inspektorlariga amaliy-uslubiy ko‘maklashish yuzasidan o‘quv seminarlarini tashkil qilish;

har kuni tegishli hududning sutka davomidagi kriminogen vaziyati bilan shaxsan tanishish va bunda ijtimoiy-maishiy tusdagi jinoyatlarga alohida e’tibor qaratish;

har bir hududning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda, qilinadigan ishlar tahlili, hisob-kitobini amalga oshirish, jinoyatlarning oldini olish, ishsiz fuqarolarni bandligini ta’minlash, kam ta’minlangan oilalarga imtiyozli kreditlar ajratish va boshqa masalalar bo‘yicha tasdiqlangan hududiy “Yo‘l xarita”larining ijrosini qat’iy nazoratga olish;

“Xavfsiz mahalla” konsepsiysi asosida, barcha korxona-tashkilotlar, muassasalar rahbarlari bilan tushuntirish ishlari jadallashtirilib, videokuzatuv moslamalari bilan jihozlash ishlari kuchaytirish topshirilsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (M.Teshayev), Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-sod Farmoni hamda 2025-yil 3-yanvardagi “2025 yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1-sonli Qarori ijrosi yuzasidan mas’ullarning hisobotlarini eshitish bo‘yicha takliflar kiritib borsin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH